

**SUN ‘IY INTELLEKT YORDAMIDA INGLIZ TILINI O ‘RGANISH:  
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA SAMARALI VOSITALAR**

*Ilmiy rahbar:*

*Filologiya fanlari doktori (PhD), Dotsent*

*Azzamov Yusufjon Radjabboyevich*

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*Ingliz filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

*Murodova Nigora Xayriddinovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun‘iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o‘rganish jarayonidagi o‘rni, zamonaviy pedagogik yondashuvlari hamda samarali vositalari keng tahlil qilinadi. Sun‘iy intellekt asosida ishlab chiqilgan mobil ilovalar, ta‘lim platformalari va chatbotlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, grammatik ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda muloqot qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada sun‘iy intellektdan foydalanish yo‘llari, uning afzalliklari hamda ingliz tilini o‘rganish jarayonidagi real misollar ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Sun‘iy intellekt, ingliz tilini o‘rganish, raqamli ta‘lim, til o‘rganish texnologiyalari, adaptiv ta‘lim, chatbotlar, mobil ilovalar.

**Abstract:** This article analyzes the role of artificial intelligence in learning English, modern pedagogical approaches, and effective tools used in language education. AI-based platforms, applications, and chatbots help learners improve their vocabulary, grammar, pronunciation, and communication skills through personalized learning and instant feedback. The article also discusses different ways of using AI in language learning and provides practical examples.

**Key words:** Artificial intelligence, English language learning, digital education, language technologies, adaptive learning, chatbots, mobile applications.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль технологий искусственного интеллекта в изучении английского языка, современные педагогические подходы и эффективные инструменты обучения. Приложения и платформы на основе искусственного интеллекта помогают учащимся развивать словарный запас, грамматические навыки и коммуникативные способности. В статье также рассматриваются способы использования искусственного интеллекта и практические примеры его применения в изучении английского языка.

**Ключевые слова:** Искусственный интеллект, изучение английского языка, цифровое образование, образовательные технологии, адаптивное обучение.

## KIRISH

XXI asrda ilm-fan va texnologiyalar jadal rivojlanib, inson hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimida yangi imkoniyatlarni yaratdi. Hozirgi globallashuv davrida ingliz tilini bilish xalqaro muloqot, ilmiy tadqiqotlar, biznes va professional faoliyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ingliz tilini samarali o'qitish va o'rganish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida sun'iy intellekt (Artificial Intelligence – AI) texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Sun'iy intellekt inson fikrlash jarayonini modellashtirishga qodir bo'lgan texnologiya bo'lib, u ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega. AI texnologiyalari o'quv jarayonini avtomatlashtirish, individual yondashuvni ta'minlash hamda o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda katta yordam beradi.

Til o'rganish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish o'quvchilarga mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatini yaratadi. AI asosidagi ta'lim platformalari o'quvchilarning xatolarini tahlil qiladi, ularning bilim darajasiga mos mashqlarni taklif etadi va o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan interaktiv tizimlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi hamda o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi.

### SUN 'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH YO 'LLARI

Sun'iy intellekt ingliz tilini o'rganishda turli pedagogik va texnologik yondashuvlar orqali qo'llaniladi.

#### ▪ **Adaptiv ta'lim tizimlari**

Adaptiv ta'lim – bu o'quvchining bilim darajasiga mos ravishda ta'lim materiallarini avtomatik ravishda moslashtiradigan tizimdir. Sun'iy intellekt o'quvchining bajarilgan topshiriqlarini tahlil qilib, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi. Shunga asoslanib, tizim yangi mashqlarni tavsiya qiladi. Bu usul o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlaydi.

#### ▪ **Chatbotlar yordamida muloqot**

Sun'iy intellekt asosida yaratilgan chatbotlar ingliz tilida suhbat qurish imkonini beradi. O'quvchilar chatbot bilan muloqot qilish orqali speaking ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday tizimlar o'quvchilarning savollariga javob beradi, ularni to'g'ri gap tuzishga o'rgatadi va xatolarni tuzatadi.

#### ▪ **Avtomatik baholash tizimi**

Sun'iy intellekt o'quvchilarning yozma ishlari, test natijalari va talaffuzini avtomatik ravishda baholay oladi. Bu esa o'qituvchilar uchun vaqtni tejashga yordam beradi va o'quvchilarga tezkor natija olish imkonini yaratadi.

#### ▪ **Nutqni tanish texnologiyalari**

AI asosidagi nutqni tanish texnologiyalari talaffuzni tekshirishda keng qo‘llaniladi. Bunday dasturlar o‘quvchining talaffuzini tahlil qilib, xatolarni aniqlaydi va ularni to‘g‘rilash bo‘yicha tavsiyalar beradi.

### ▪ Virtual o‘qituvchilar

Sun‘iy intellekt asosida yaratilgan virtual o‘qituvchilar o‘quvchilarga doimiy yordam ko‘rsatadi. Ular darslarni tushuntiradi, mashqlar beradi va o‘quv jarayonini nazorat qiladi. Bugungi kunda ingliz tilini o‘rganishda su‘iy intellekt asosida ishlaydigan ko‘plab dastur va platformalar mavjud.

#### 1. Duolingo

Duolingo – eng mashhur til o‘rgatuvchi mobil ilovalardan biridir. Ushbu platforma o‘yin elementlari orqali til o‘rganish jarayonini qiziqarli qiladi. AI tizimi foydalanuvchining javoblarini tahlil qilib, uning bilim darajasiga mos mashqlarni taklif qiladi.

#### 2. Grammarly

Grammarly – yozma matnlarni tekshiruvchi su‘iy intellekt dasturi. U grammatik, stilistik va imlo xatolarini aniqlaydi hamda ularni tuzatish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Bu dastur ingliz tilida yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda juda foydali.

#### 3. ELSA Speak

ELSA Speak – talaffuzni yaxshilashga qaratilgan mobil ilova. Su‘iy intellekt yordamida o‘quvchining talaffuzi tahlil qilinadi va xatolar ko‘rsatib beriladi.

#### 4. ChatGPT

ChatGPT kabi su‘iy intellekt tizimlari o‘quvchilarga ingliz tilida muloqot qilish, matn yozish va yangi so‘zlarni o‘rganishda yordam beradi. Bu tizimlar o‘quvchilarga real vaqt rejimida maslahat berishi mumkin.

Su‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ingliz tilini o‘rganishda bir qator afzalliklarni t‘minlaydi:

- o‘quv jarayonining individuallasuvi
- o‘quv materiallarining moslashuvchanligi
- tezkor tahlil va baholash imkoniyati
- mustaqil t‘lim olish imkoniyati
- interaktiv va qiziqarli o‘quv muhiti

Bundan tashqari, AI texnologiyalari o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, su‘iy intellekt texnologiyalari ingliz tilini o‘rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. AI asosidagi t‘lim platformalari o‘quvchilarga individual yondashuvni t‘minlaydi, o‘rganish jarayonini interaktiv qiladi va bilimlarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

Chatbotlar, mobil ilovalar, nutqni tanish tizimlari va virtual o'qituvchilar yordamida o'quvchilar ingliz tilini mustaqil ravishda o'rganishi mumkin. Kelajakda su'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimida yangi innovatsion metodlarning paydo bo'lishiga olib keladi va til o'rganish jarayonini yanada takomillashtiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedjanova D., Hasanov Sh. **Artificial Intelligence in Language Learning.** International Journal of Scientific Research, 2023.
2. Holmes W., Bialik M., Fadel C. **Artificial Intelligence in Education.** Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
3. <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/1680>
4. <https://www.wosjournals.com/index.php/ptj/article/view/2736>
5. Rajabov A.T. **Raqamli ta'lim va sun'iy intellekt texnologiyalari.** Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
6. Shoisayeva D. **Ingliz tili darslarida sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'siri.** Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 2024.
7. Wang Y. **Artificial Intelligence in Language Education: A Systematic Review.** Educational Technology & Society, 2020.

